



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA RAQAMLI
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MUAMMO
SIFATIDA

Umarova Go'zalxon Botirjon qizi
QDPI. O'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli kompetensiyasini elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va ilg'or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-funksional modelini tahlil qilish asosida rivojlantirish masalalari ko'rilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiyasi, boshlang'ich sinf, axborot- kommunikativlik, loyihalash, konstruksiyalash.

DEVELOPMENT OF DIGITAL COMPETENCES IN FUTURE PRIMARY CLASS
TEACHERS AS A SOCIAL-PEDAGOGICAL PROBLEM

Umarova Go'zalkhan Botirjonovna
QSPI. Teacher

Annotation: In this article, the pedagogical conditions for the development of electronic educational resources and the development of digital competence in future primary school teachers based on advanced foreign experiences are clarified, the development of digital competence in future primary school teachers is discussed in this article. Based on the analysis of the organizational-functional model, issues of development were considered.

Key words: competence, primary class, information-communicative, design, construction.

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ
ПРОБЛЕМА

Умарова Гузалхан Ботирджоновна
КГПИ. Учитель

Аннотация: В данной статье рассматривается разработка электронных образовательных ресурсов и развитие цифровой компетентности будущих учителей начальных классов и уточнение педагогических условий на основе передового зарубежного опыта развития цифровой компетентности будущих учителей



начальных классов На основе анализа организационно- функциональная модель, рассмотрены вопросы развития.

Ключевые слова: *компетентность, начальный класс, информационно-коммуникативная, проектирование, построение.*

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida o'z mutaxassisligiga tegishli yangi axborotlarni tezkor izlab topish va ishlov berish, ularda axborot-kommunikativlik, loyihalash, konstruksiyalash, boshqaruv, tadqiqotchilik kabi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, o'z-o'zini faollashtirish, o'z-o'zini boshqarish va baholash, butun hayoti davomida ta'lim olishga qaratilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali ularda mustaqil ta'lim olish, xorijiy tillarni o'zlashtirish, faoliyatni tanqidiy tahlil qilish va jamoaviy ishlash, qaror qabul qilish, doimiy ravishda yangi g'oya, texnologiyalarni izlash asosida raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni taqazo etmoqda.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun ularga qo'shimcha sharoitlar yaratish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasida mutaxassislarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Bo'lajak mutaxassislarni faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o'z amaliy faoliyatida qo'llay oluvchi mutaxassislar qilib tayyorlash tizimini samarali tashkil etishda ularning axborot-kommunikativ kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Ta'lim nazariyasini rivojlantirish doirasida ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligini amalga oshirishning innovatsion shakllari, usullari va texnologiyalarini faol izlash ta'limni raqamlashtirish asosida olib borilmoqda. Bunday ta'lim muhitida o'quv jarayonining markazida raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan pedagogik o'zaro ta'sir yotadi. Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'lim sohasida raqamli o'zaro aloqalarni amalga oshirish faol o'rganilmoqda.

Mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan pedagogika yo'nalishida ham amalga oshirilayotgan muhim mexanizmlaridan biri bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Raqamlashtirilgan ta'lim yangi vositalar va eng so'nggi ta'lim texnologiyalardan faol foydalanishni ta'minlaydi, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi modellarini amalga oshirishga hissa qo'shadigan didaktik ta'lim vositalaridan foydalangan holda o'qitishning yangi shakllari va usullarini joriy etadi. Biroq,



bugungi kunga qadar, ushbu texnologiyalarni oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga tatbiq etish jarayon juda past darajada amalga oshirilmoqda, buni ko'p jihatdan, oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining ushbu texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanishga tayyor emasligi bilan izohlash mumkin.

Ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida elektron ta'lim jarayonini tashkil etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va o'quv qo'llanmalaridan foydalanishda maqsadli tayyorlashga hamda ularni raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga katta xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'limni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy faoliyatga tayyorlash oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uni rivojlantirish davlat ta'lim dasturlariga kiritilgan. Ta'lim jarayoniga elektron ta'lim resurslari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida masofaviy ta'lim tizimini joriy qilishga bo'lgan talabni qabul qilingan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar tasdiqlaydi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori (PQ-3832-son, 03.07.2018 y.).

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni (PF-6079 son 05.10.2020 y.).

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim jarayoniga innovatsiyalarning kiritilishi ko'plab omillar, jumladan, axborot va raqamli ta'lim muhitini hisobga olgan holda, ta'lim sifati va mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan talablarning tobora ortib borishi hamda hududiy oliy ta'lim muassasalarilarining infratuzilmasi bilan bog'liq.

Tadqiqot muammosiga oid izlanishlar asosida xorijiy tadqiqotchilarning ta'lim oluvchilarni axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari bilan tanishib chiqdik.

Pedagog olim I.V.Robertning tadqiqotlarida pedagogik faoliyatning modifikatsiyalari ta'lim jarayoniga axborot va innovatsion ta'lim vositalarini joriy etish kontekstida taqdim etilgan.

Ye.I.Mashbis tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda teskari va keng tarqalgan elektron ta'limning tarqalishi kontekstida o'qituvchilarni kasbiy mehnatga tayyorlash jihatlari tahlil qilingan.

Bizning "raqamli savodxonlik" tushunchasining terminologik ta'rifida "raqamli", "axborot", "ijtimoiy" va "qayta loyihalash" kabi to'rtta tushuncha ko'p qo'llanilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Mamlakatimizda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan va o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari R.X.Djuraev[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], A.A.Abduqodirov[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], N.A.Muslimov[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], M.Arifov[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**],



U.Sh.Begimqulov[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], U.Yuldashev[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], N.I.Tayloqov[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], Sh.S.Sharipov[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], I.T.Aliev[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], O.A.Qo'ysinov[19], H.Sh.Qodirov[18], D.N.Mamatov[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], X.A.Yulbarsova[17], U.X.Mingboev[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] kabi pedagog olimlar hamda tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan.

Akademik R.X.Djuraevning tadqiqotlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlarini o'z aksini topgan[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Pedagog olim N.A.Muslimov bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisida pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etgan. Shuningdek olim kasb ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari tarkibi, kasbiy kompetensiyaning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida faoliyatidagi ahamiyati, kompetensiyalarni rivojlantirish metodikalari bo'yicha ahamiyatli tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Bo'lajak kasb ta'limi va mehnat ta'limi o'qituvchilarining ixtirochilik va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy va pedagogik asoslari Sh.S.Sharipov tomonidan o'rganilgan.

I.T. Alievning tadqiqotlarida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning izlanuvchanlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirish muammolari o'rganilgan.

O.A.Qo'ysinov o'z tadqiqotlarida "bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kompetentligini shakllantirish hamda kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish orqali kasbiy ta'lim sifatini ta'minlash mumkin" degan fikrni bildiradi va "ta'lim jarayonini amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish - kasbiy ta'lim sohasini modernizatsiya qilishning eng muhim vazifalaridan biri" deb hisoblaydi[19].

H.Sh.Qodirovning tadqiqotlarida pedagog kadrlar tayyorlash mazmuni axborot-kommunikatsion tayyorgarlik jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv-uslubiy majmualar yordamida tashkil etish taklifi ilgari surilgan.

X.A.Yulbarsovaning tadqiqotlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ kompetentligini shakllantirishning integratsion omillari kasbiy-kommunikativ faoliyatning refleksiv shakllarini (individual-uslubiy, intuitiv) pedagogik imijning verbal va noverbal vositalari bilan uyg'unlashtirish (integratsiyalash, doimiy tahlil qilish) asosida takomillashtirish o'z aksini topgan.

U.X.Mingboevning "O'quvchilarda axborot-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida bo'lajak mutaxassislarni samarali kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetensiyalarning o'rnini va ahamiyati, professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda interaktiv o'qitish metodlarining imkoniyatlari, o'quvchilarda axborot kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini modellashtirish va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini



aniqlash, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirishga imkon beruvchi informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha keyslar to'plami, topshiriqlar va mashqlar tizimini ishlab chiqish va ularning kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish vositasi sifatidagi pedagogik imkoniyatlarini baholashga e'tibor qaratilgan.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar, olib borilgan tadqiqotlarni nazariy tahlil etish shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot-kommunikatsion tayyorgarligiga oid turli ilmiy ishlar va yondashuvlar mavjud.

Respublika oliy ta'lim muassasalarilarida tayyorlanayotgan va faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarni samarali tayyorlash, ularni ta'limni axborotlashtirish sharoitida ishlashga moslashtirish muammolari va vazifalarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarilarning raqamlashtirish jarayoniga o'tayotganligini hisobga olgan holda, talabalar o'rtasida elektron ta'limning joriy etilishini tahlil qilish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. Beshta ta'lim dasturi bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, elektron ta'lim universal kommunikativ vosita bo'lib, uning asosida oliy ta'lim muassasalari ta'lim muhitining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli kompetensiyasi shakllanadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarligi birinchi o'rinda turadi va u qudagilar bilan belgilanadi:

➤ Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni faol o'zlashtirish qobiliyati, mustaqil faoliyat doirasining kengligi, pedagogik jarayonlarni loyihalashga, to'g'ri tanlashga bo'lgan qobiliyati;

➤ o'zining kelajakdagi kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalana olish darajasi.

Insoniyat o'z rivojlanishining yangi davriga qadam qo'ydi. Buning natijasida axborotlashgan jamiyat shakllanmoqda, unda axborot va axborot jarayonlari inson hayot faoliyatining muhim tashkil etuvchilaridan biri bo'lishi shubhasizdir. Bu esa ta'lim tizimida o'quv jarayoni raqamlashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanishni talab qiladi, ammo ushbu jarayonni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida maxsus kasbiy faoliyatga tayyorlamasdan turib, tashkil qilish mumkin emas. Hozirgi kunda, ta'lim natijalariga erishishga qaratilgan elektron ta'lim resurslarini yaratish va qo'llash uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kompleks tayyorlash zaruriyati dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ko'plab tadqiqotchilar, mavjud ta'lim amaliyotining maqsadlari, mazmuni va texnologiyalari zamon talablariga javob bera olmasligini, ta'kidlaydilar. Hozirgi zamon ta'limi insoniyatning intellektual salohiyati darajasini oddiygina ko'tarishga emas, balki atrof dunyoning tez o'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va axborot realligiga moslashgan fikrlashning boshqacha obrazi va usulini, insoniyat hamjamiyati hayotida va insonning kasbiy faoliyatida axborot jarayonlarining hal qiluvchi rolini tushunishga asoslangan yangi dunyoqarashni



shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shunga bog'liq ravishda, bo'lajak mutaxassislarni o'quv jarayonida axborot - kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash muammosi bugungi kunga qadar o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o'z amaliy faoliyatida qo'llay oluvchi mutaxassislar qilib tayyorlash tizimini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish orqali raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ularni yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. "Fan" nashriyoti, Toshkent, 2009. – 145 b.

2. Abdullaeva B.S. "Boshlang'ich ta'lim sifat-samaradorligini ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida oshirish". // "Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya to'plami. Toshkent.: 2017. – 421 b.

3. Abdullaeva B.S. Formirovanie informatsionnoy kompetentnosti shkolnika. Formation of information competence of students // Yeastern Yeurorean Ssientifis Journal. AURIS Kommunikations - und Verlagsgesellschaft mbH Dusseldorf. Germanu: Ausgabe 3. 2018. – R. 183-187.

4. Abdullaeva B.S., S.J.Yaxyayev. Elektron ta'lim muhitida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik ta'minoti // Respublika ilmiy-uslubiy konferensiya. – Toshkent, 2022, – B.297-298.

5. Abdullaeva B.S., Yaxyayev S.J.. Elektron ta'lim muhitida ta'lim jarayonini tashkil qilishning normativ-huquqiy asoslari // Respublika ilmiy-uslubiy konferensiya. – Toshkent, 2022, – B.301-302.

6. Abdullaeva B.S., Yaxyayev S.J.. Elektron ta'lim muhitida o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasining tahlili // Respublika ilmiy-uslubiy konferensiya. – Toshkent, 2022, – B.295-296.

7. Abdullaeva B.S., Yaxyayev S.J.. Elektron ta'lim muhitida elektron-ta'lim resurslaridan foydalanishning nazariy va pedagogik asoslari // Respublika ilmiy-uslubiy konferensiya. – Toshkent, 2022, – B.299-300.

8. Umarova, G. B. (2022). A BOUNDARY VALUE PROBLEM FOR A PARABOLIC-HYPERBOLIC EQUATION WITH THREE PLANES OF TYPE CHANGE IN AN INFINITE PRISMATIC DOMAIN. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 3(2), 3-9.

9. Botirjonovna, U. G. (2022). SOLVE MOVEMENT PROBLEMS IN A VARIETY OF WAYS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(12), 440-442.



10. Guzalxon, U., & Hosiyatxon, T. (2023). Etymology and Definition of Maths. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 2(4), 1-8.
11. Умарова, Г. Б. (2020). Трехмерная задача Трикоми для параболо-гиперболического уравнения с двумя плоскостями изменения типа. *Вестник Института математики*, (3), 153-166.
12. Islomov, B. I., & Umarova, G. B. (2021). On a boundary value problem for a mixed equation with three planes of type change in an infinite prismatic domain. *Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki*, 34(1), 19-28.
13. Islomov, B. I., & Umarova, G. B. (2020). Three-dimensional Problems for a Parabolic-Hyperbolic Equation with Two Planes of Change of Type. *Lobachevskii Journal of Mathematics*, 41(9), 1811-1822.
14. Abdurahmanov, U. S. (2023). Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 2(3), 20-24.
15. Abduraxmonov, U. S., & No'monova, D. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO'LLANILISHI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 160-165.
16. Shoqosim o'g'li A. U., Xafizaliyevna M. X., To'lqinjon G. MODERN DIDACTIC MEANS OF TEACHING MATHEMATICS IN SECONDARY SCHOOLS AND PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 460-467.